

## VEGETATION PERIOD OF MOSH CROPS AND SAMPLES.

**Shodiyev Sherzod Shamiljon o'glu.**  
Southern Agricultural Research Institute.  
[shodiyev.sherzod1991@gmail.com](mailto:shodiyev.sherzod1991@gmail.com)  
tel: +998945290114

**Annotation:** This article provides observations of the growing season from germination to budding of 50 varieties and specimens of mosh (*Vigna radiata*) of different geographical origin, presented by the International Scientific Center for Wetlands of the Republic.

**Keywords:** Moss crop, variety and ridges, vegetation period before germination, branching, budding, flowering and legumes

## MOSH EKINI NAV VA NAMUNALARNING VEGITATSIYA DAVRI DAVOMIYLIGI.

**Shodiyev Sherzod Shomiljon o'g'li.**  
Janubiy dehqonchilik ilmiy ta'dqiqot institute.  
[shodiyev.sherzod1991@gmail.com](mailto:shodiyev.sherzod1991@gmail.com)  
tel:+998945290114

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Respublikamizning suvli maydonlarda xalqaro ilmiy markazidan keltirilgan, geografik kelib chiqishi turlicha mosh (*Vigna radiata*)ning 50 ta nav va namunalarining unib chiqishdan, dukkaklashgacha bo'lgan vegetatsiya davr kuzatuv ishlari olib borilgan.

**Kalit so'zlar:** mosh ekini, nav va tizmalar, unib chiqish, shoxlash, g'unchalash, gullash va dukkak qilishgacha bo'lgan vegetatsiya davri.

Hozirgi kunda iqlimning global isishi, o'rtacha sutkali havo haroratining oshishi natijasida qishloq xo'jaligi ekinlari o'suv davrida tuproq va havo qurg'oqchiligining tez-tez yuzaga kelishi, jumladan don va dukkakli don ekinlarining don hosildorligi va sifatiga salbiy ta'siri ko'rsatmoqda. Dunyo aholisini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan etarlicha ta'minlash borasida qishloq xo'jaligi sohasidagi islohatlarni yanada chuqurlashtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarning samarali tizimini yaratishni taqozo etadi. Bu borada eng ustuvor vazifa donli ekinlar bilan bir qatorda tarkibida oqsil moddasi ko'p bo'lgan dukkakli don ekinlari talab ortmoqda.

B. Xalikov, A. Iminovlar ma'lumotlariga ko'ra. Dunyoda dukkakli don ekinlar orasidan mosh ekinining ekiladigan maydoni 25 mln gektarni tashkil etadi va respublikamizda esa har yili takroriy ekin sifatida mosh 18-20 ming gektarda ekiladi.

M. Alagupalamuthirsolai va boshqalarning ma'lumotlariga ko'ra. Moshning reproduktiv davrida kunduzi havo harorati 40 °S dan yuqori bo'lganda va yozning issiq quruq iqlim sharoitida moslashgan bo'lib. Ammo hosiliga ta'sir qiladi.

R. Kaur va boshqalar tadqiqot natijalariga ko'ra mosh ekinining ikkita navi ustidan issiqlikka chidamligini bish maqsadda havo harorati kun\tunda 43/30 C, 45/32 C bo'lganda moshning vetatsiya davrida havo harorati kutarilishi gullash paytida va dukkaklaga juda ta'sir qilganini aniqladi. Havo harorati 25-35 C bo'lganda hechqanday tasir qilmaganligi kuzatgan.

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani, Ya.Omonov hududida joylashgan “Markaziy” tajriba maydonida mosh (*Vigna radiata*) nav va tizmalarining qimmatli xo‘jalik belgilariga ega bo‘lgan nav, duragay va liniyalarning issiqlikka chidamli navlarni tanlash va moshning qimmatli xo‘jalik belgi va xususiyatlarini o‘rganish uchun navlari raqobatli nav sinash ko‘chatzorida olib borildi. Ushbu mintaqaning tuprog‘i och tusli bo‘z tuproq hisoblanadi. Tajribamiz 50 ta nav va tizmalar, 3 qaytariqda 2,5m<sup>2</sup> maydonga ekib o‘rganildi.

Tadqiqotimiz davomida mosh ekini nav va tizmalari, o‘simlikning unib chiqishi fazasi aprel oyning 17-20 kunlariga to‘g‘ri kelganligi kuzatildi. Nav va tizmalardan andoza nav sifatida moshning “Qaxroba” navi tanlab olindi. Tajriba dalasida unib chiqqan o‘simliklarning tup sonini sanab chiqqanimizda, o‘simliklar soni 12-19 tagacha unib chiqqanligini kuzatdik. Bunda andoza “Qaxroba” navida 17 tup o‘simlik unib chiqqanligi kuzatildi. Andoza navidan nisbatan mana shu KR21-MUNGPYT-IR-20, KR21-MUNGPYT-IR-01, KR21-MUNGPYT-IR-14, KR21-MUNGPYT-IR-08 tizmalarda esa 18-19 tup o‘simlik unib chiqqanligi ma‘lum bo‘ldi.

Nav va tizmalarining shoxlashnishi sanasi 17-20 may kunlari va g‘unchalash sanasi 24-31 maylarda to‘g‘ri keldi. Moshning nav va tizmalarining g‘unchalash paytidan gullashgacha bo‘lgan oralig‘i 4 kundan keyin gullashni boshladi. Moshning nav va tizmalar gullashsanasi 28 maydan 4 iyun kunlarda va dukkak hosil qilish sanasi 1-11 iyunlarda kuzatildi.

### 1- jadval.

**Mosh nav va tizmalarining unib chiqishdan, dukkaklashgacha bo‘lgan vegetatsiya davri.  
(Qarshi 2021-yil).**

Делянка №	Сел.№	Нав ва тизмалар	Униб сана чиқиш,	Униб ўсимликлар чиққан	Шохланиш, сана	Гунчалаш, сана	Гуллалаш, сана	Дуккак хосил қилиш, сана	Дуккак лашгача бўлган кун
1	1	Қахрабо (ст)	20 апр	17	18 май	28 май	1 июн	4 июн	45
2	21	KR21-MUNGPYT-IR-20	17 апр	19	18 май	28 май	1 июн	4 июн	48
3	41	KR21-MUNGPYT-IR-40	17 апр	12	19 май	27 май	31 май	4 июн	47
4	2	KR21-MUNGPYT-IR-01	19 апр	18	19 май	30 май	1 июн	4 июн	46
5	22	KR21-MUNGPYT-IR-21	19 апр	15	17 май	26 май	30 май	2 июн	45
6	13	KR21-MUNGPYT-IR-12	17 апр	14	17 май	24 май	28 май	1 июн	44
7	14	KR21-MUNGPYT-IR-13	17 апр	15	18 май	29 май	2 июн	5 июн	49
8	5	KR21-MUNGPYT-IR-04	19 апр	12	18 май	29 май	2 июн	5 июн	47
9	15	KR21-MUNGPYT-IR-14	18 апр	18	17 май	28 май	1 июн	4 июн	47
10	35	KR21-MUNGPYT-IR-34	18 апр	17	17 май	24 май	28 май	11 июн	54
11	37	KR21-MUNGPYT-IR-	20	16	18	31	4 июн	7 июн	48

		36	апр		май	май			
12	38	KR21-MUNGPYT-IR-37	19 апр	13	19 май	26 май	30 май	3 июн	45
13	48	KR21-MUNGPYT-IR-47	19 апр	16	18 май	31 май	3 июн	6 июн	48
14	9	KR21-MUNGPYT-IR-08	17 апр	18	18 май	25 май	29 май	2 июн	46
15	10	KR21-MUNGPYT-IR-09	19 апр	15	20 май	27 май	31 май	4 июн	45
16	30	KR21-MUNGPYT-IR-29	20 апр	13	17 май	28 май	1 июн	4 июн	45
	<b>Min</b>		17 апр	12	17 май	24 май	28 май	1 июн	44
	<b>Mean</b>		18 апр	16	18 май	28 май	31 май	4 июн	47
	<b>Max</b>		20 апр	19	20 май	31май	4 июн	11 июн	54

Mosh ekini nav va tizmalarning gunchalash fazasidan va dukkak hosil bo'lgan davr 7-10 kun bo'lganligi va unib chiqishidan, dukkak hosil qilishgacha bo'lgan oralig' 44-54 kungacha kuzatildi. Andoza "Qaxroba" navi va KR21-MUNGPYT-IR-20, KR21-MUNGPYT-IR-40, KR21-MUNGPYT-IR-01, KR21-MUNGPYT-IR-14, KR21-MUNGPYT-IR-09, KR21-MUNGPYT-IR-29 tizmalar 4-iyunda dukkak hosil qilganligi kuzatildi lekin unib chiqishdan dukkak hosil qilgan kunlar farq qilganligi aniqlandi. moshni nav va tizmalar orasidan andoza navga nisbatan KR21-MUNGPYT-IR-12, KR21-MUNGPYT-IR-08, KR21-MUNGPYT-IR-21 manashu tizmalar ertachi dukkak hosil qilganligi aniqlandi.

**Xulosa:** Mosh (*Vigna radiata*) ekini nav va tizmalarninig unib chiqishdan dukkak hosil bo'lgan kun oraliqlari aniqlanib chiqildi va tanlab olindi. Andoza "Qaxroba" naviga nisbatan ertachi dukkak hosil bo'lgan tizmalarni ajrati olindi

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xaliqov.B, Iminov.A, G'alladan bo'shgan maydonlarda mosh yetishtirish // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. Toshkent 2016 №6.
2. Alagupalamuthirsolai M. et al Physiological evaluation of Bungbean (*Vingna radiate*(I) wilezek cultivars for heat tolerance food *Leyumes* 28 [2], 30-34.
3. R.Kaur et al Responses of mungbean (*Vingna radiata*) genotypes heat stress Effects on reproductive biology leaf funettion and yield traits // *SeventraHorticeturae* 2015-t 197-C 527-541.